

CHET TILINI O'QITISHDA MASHQLAR TIPOLOGIYASI VA ULARNING LINGVOPRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Sharipova Charos Akbarovna

O'zDJTU tayanch doktoranti

e-mail. charosjahontillari@gmail.com

Tel: +99893 378 09 84

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tilini o'rgatishda mashqlar tizimining ahamiyati va turli olimlarning mashqlar tipologiyasiga qo'shgan hissalarini tahlil qilinadi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchi olimlarning nazariy yondashuvlari qiyosiy-tahliliy usulda o'rganilgan. Tadqiqotda mashqlarning lingvopragmatik kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishdagi roli ko'rsatilgan hamda raqamli texnologiyalar sharoitida mashqlar metodikasiga yangicha yondashuvlar zarurligi asoslangan. Olingan natijalar zamonaviy ta'lim jarayonida samarali mashqlar tizimini tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Mashqlar tipologiyasi, lingvopragmatik kompetensiya, kommunikativ mashqlar, raqamli texnologiyalar, chet tili o'qitish metodikasi, nutqiy faoliyat, til o'rganish bosqichlari

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirishda mashq va topshiriqlarning ahamiyati beqiyosdir. Chet tilini o'rgatishda metodikaning asosiy unsurlaridan bo'lgan mashqlar tizimi talabalar kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda, rivojlantirishda va takomillashtirishda hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Hozirgi kun ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda kirib kelishi mashqlar metodikasiga yangicha yondashuvlar zarurligini ko'rsatmoqda. An'anaviy mashqlar onlayn muhitga moslashtirilib qo'llanilganda, ularning samaradorligi va didaktik imkoniyatlarining yuqori darajada o'zgarishi shubhasizdir. Chunki bunday turdagi mashqlar talabalar tomonidan tez va oson qabul qilinadi hamda eng asosiysi darslarda ishlatilish imkoniyatlari kengayadi.

Asosiy qism. Ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar til o'rgatishda mashqlar tizimi masalasiga o'z tadqiqot ishlarida e'tibor qaratishgan. Jumladan J.Jalolovning chet tili o'rganish jarayonida mashqlarning ahamiyati haqidagi fikrlari chet tili o'qitish metodikasida muhim o'rin tutadi. Uning ta'kidlashicha, chet tili o'rganishni faqat mashqlar bajarish jarayoni deb atash xato emas, chunki mashqlar tilni o'zlashtirishning asosiy vositasidir. Mashqlar orqali talabalar nutqiy faoliyatning barcha turlarini (tinglash, gapirish, o'qish va yozish) egallaydi, bu esa lingvistik va lingvopragmatik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jalolov mashqlarni uch turga ajratadi: shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi. [2] Ushbu tasnif til o'rganish jarayonining bosqichlilikini va har bir bosqichda mashqlarning o'ziga xos vazifasini ko'rsatadi.

V.A. Bukhbinder psixolingvistik nuqtai nazardan mashqlarni uch turga ajratgan – informatsion (bilim berishga yo'naltirilgan, masalan, yangi leksika va grammatikani o'rgatish), operatsion (ko'nikma shakllantirish, amaliy harakatlar orqali) va motivatsion (qiziqish uyg'otish va nutqiy faoliyatni rag'batlantirish). [1]

E.P.Shubin mashqlarning o'quv maqsadi va mazmuniga ko'ra mashqlarni sintetik va amaliy turlarga bo'ladi. Amaliy mashqlar alohida til hodisalari yoki guruhlarida ishlab chiqiladi, sintetik mashqlarda esa o'quvchi ilgari o'zlashtirilgan til hodisalarining umumiy yig'indisidan yoki uning istalgan qismidan kommunikativ faoliyatda foydalanishga

yo'naltiriladi. Amaliy mashqlar ko'pincha muloqotdan oldingi xarakterga ega bo'ladi, ammo ular tuzilishi va shakllantirilishiga ko'ra kommunikativ xususiyatga ham ega bo'lishi mumkin. Sintetik mashqlar esa asosan kommunikativ xarakterga ega: tabiiy og'zaki muloqot (dialog, monolog) o'z-o'zidan nutqda kommunikativ sintetik mashq hisoblanadi. Amaliy va sintetik mashqlar til o'rgatishda bir xil darajada muhimdir, bu ikki turdagi mashqlarning hech birini birini biridan kam baholash joiz emas. [7]

I. jadval

Olimlar	Asosiy tipologiya turlari	Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlanishdagi roli
Buhbinder & Rakhmanov	Informatsion, operativ, motivatsion [1]	Lingvopragmatik kompetensiyani shakllantirish va amaliy kontekstda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
Passov	Shartli-kommunikativ, kommunikativ mashqlar [5]	Real va shartli kommunikatsion vaziyatlarda nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlash va pragmatik moslashuvchanlikni oshirishga hissa qo'shadi.
Shubin	Amaliy, sintetik [7]	Nutqiy harakatlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularning kommunikatsion kontekstda samarali qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qiladi.
Shatilov	Haqiqiy yoki tabiiy-kommunikativ, shartli-kommunikativ, nutqsiz (kommunikativ bo'lmagan) [6]	Turli kommunikatsion muhitlarda moslashuvchanlikni shakllantirish, shuningdek, nutqiy strategiyalarni ilmiy asoslangan tarzda rivojlantirishga yordam beradi.
Latishev & Semenov	Tarjima oldi, tarjima mashqlari [3]	Lingvopragmatik kompetensiyani ikki tilli kontekstda rivojlantirishga, matnni aniq talqin qilishga yordam beradi.
PACTE	Strategik, instrumental [8]	Lingvistik va pragmatik strategiyalarni samarali qo'llashni o'rgatadi.
Jalolov	Shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi. [2]	Lingvopragmatik ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan

E.I. Passov mashqlarning batafsilroq tasnifiga urinib, quyidagi tipologiyani taklif qildi: 1) shartli-nutqiy mashqlar – malaka shakllantirish uchun mashqlar va 2) nutqiy mashqlar – ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mashqlar. U mashqlar turlarini to'rtta asosiy mezoniga ko'ra ajratadi:

1. nutqiy vazifa;
2. iboralarning situativ muvofiqligi;
3. nutqiy ifodalarning tuzilishi va mazmuniga bog'liqligi;
4. nutqiy ifodalarni tuzishda qo'llaniladigan yordamchi vositalarga ko'ra. [4]

L.P. Solonsovaning fikricha, agar xorijiy tilni o'zlashtirishdagi faoliyat turlicha va bosqichma bosqich bo'lsa, mashqlar ham maqsad va vazifalar tartibiga mos keladigan tartibiy tuzilmasini tashkil etishi kerak. Shunga ko'ra, mashqlar yakuniy maqsadli

ko'nikmalarga qarab gapirish, o'qish, eshitish va yozish mashqlariga bo'linadi. Nutqiy faoliyat turlari ichida mashqlar quyidagi turlarga bo'linadi, ular tilni, nutqni yoki nutqiy faoliyatni o'zlashtirishga yo'naltirilganligiga qarab farqlanadi:

1. Til va nutq mashqlari (I.V. Raxmanov);
2. Shartli-kommunikativ va kommunikativ mashqlar (E.I. Passov);
3. Til, nutq oldi va nutq mashqlari (S.F. Shatilov);
4. Kommunikativ bo'lmagan va kommunikativ mashqlar, "hali nutq emas – nutq" qarama-qarshiligiga asoslanadi (E.P. Shubin);
5. Tayyorlov mashqlari, nutqiy komplekslarni takrorlashga yo'naltirilgan, va nutq mashqlari, og'zaki va yozma nutqni tushunish hamda fikrlarni og'zaki va yozma shaklda ifodalashga qaratilgan (I.D. Salistra). [5]

Lingvopragmatik kompetensiya - bu tilni real muloqot vaziyatlarida maqsadga muvofiq, kontekstga mos va samarali qo'llash qobiliyatidir. Lingvopragmatik kompetensiya tilni o'rganishda grammatik va leksik bilimlar bilan bir qatorda muhim o'rin tutadi. Bu kompetensiyasi rivojlangan o'quvchi chet tilida nafaqat to'g'ri, balki vaziyatga mos va tabiiy muloqot qila oladi.

Biz lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim bo'lgan mashqlar tipologiyasiga oid bir nechta olimlarning nazariyalarini o'rganib chiqdik va bu mashqlarning lingvopragmatik kompetensiyani rivojlanishidagi rolini tahlil qilib ko'rdik. (I jadvalga qarang).

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'rgatishda mashqlar tizimi lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Turli olimlarning mashqlar tipologiyasiga qo'shgan hissalari har xil bo'lsa-da, ularning hammasida umumiy yo'nalish – talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish maqsadi ko'zda tutilgan. Bukhbinder va Raxmanovning informatsion, operativ va motivatsion mashqlari til o'rgatishning psixologik asoslarini hisobga oladi. Passovning shartli-kommunikativ va kommunikativ mashqlari real muloqot vaziyatlarini modellashtirishga yo'naltirilgan. Shubin va Shatilovning tasnifi mashqlarning amaliy va kommunikativ tomonlarini ajratadi. Jalolovning shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlari esa mahalliy kontekstda til o'rganish jarayonining bosqichlilikini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda turli tipologik yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Har bir mashq turi o'ziga xos vazifani bajaradi va til o'rganish jarayonining ma'lum bosqichida samarali bo'ladi. Shu sababli, zamonaviy chet tili o'qituvchisi barcha mashq turlarini maqbul nisbatda qo'llay olishi va raqamli vositalar imkoniyatlaridan unumli foydalanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бухбиндер, В. А. О системе упражнений // Общая методика обучения иностранным языкам: Хрестоматия. – 1991. – С. 93–98.
2. J.Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi."O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.2012.13-14b.
3. Латышев, Л. К., Семенов, А. А. Перевод: теория, практика и методика преподавания. – Москва: Academia, 2003. – С. 162–186.

4. Мусаелян, И. Ф. Понятие «система упражнений» и попытки ее усовершенствования в методике преподавания иностранных языков // Современное педагогическое образование. – 2020. – № 4. – С. 38–41.
5. Солонцова, Л. П. Современная методика обучения иностранным языкам (общие вопросы, базовый курс): учебник для студентов педагогической специальности и преподавателей иностранных языков разных типов образовательных учреждений. – Алматы: Эверо, 2015. – С. 105–116.
6. Шатилов, С. Ф. Актуальные проблемы методики обучения русскому языку иностранных учащихся. – Л., 1985.
7. Шубин, Э. П. Основные принципы методики обучения иностранным языкам. – М.: Учпедгиз, 1963. – 191 с.
8. PACTE. Building a translation competence model // Triangulating translation: perspectives in process oriented research / ed. by F. Alves. – Amsterdam: John Benjamins, 2003. – P. 43–66.